

ENG ODDIY ELEKTROMAGNITNI YIG'ISH VA UNING ISHLASHINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: eng oddiy elektromagnit qurilmasini yig'ish va uning ishlashini sinab ko'rish.

Kerakli jihozlar: tok manbai, reostat, kalit, ulovchi simlar, kompas, g'altak, temir o'zak.

Ishni bajarish tartibi


1. Tok manbai, reostat, g'altak va kalitdan iborat elektr zanjir yig'ing (168-rasm).

2. Yig'ilgan elektr zanjirning sxemasini chizing.

3. Zanjirni ulab, kompas yordamida g'altak qutblarini aniqlang.

4. Kompasni g'altakning o'qi bo'ylab magnit maydon ta'siri keskin kamayguncha undan uzoqlashtiring.

4. G'altakning ichiga temir o'zak qo'yib, elektromagnitning kompas strelkasiga ko'rsatayotgan ta'sirini kuzating va xulosa chiqaring. Xulosalaringizni daftaringizga yozing.



168-rasm.



1. Eng oddiy elektr zanjir qanday elementlardan iborat?
2. Eng oddiy elektromagnit qanday yig'iladi?
3. Yig'ilgan elektromagnit kuch chiziqlari qanday yo'nalgan bo'ladi?